



KOREYS MILLIY MADANIYATIGA ALOQADOR SO'ZLARNI TARJIMA QILISHDA LAKUNARLIK HODISASINING KELIB CHIQISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19006300>

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Murtozoeva Sevara Shokir qizi

murtazayevasevara4@gmail.com

Abdiyeva Iroda Normutovna

iroda_abdieva@gmail.com

Annotatsiya: Har bir xalqning milliy madaniyati uning tarixiy taraqqiyoti, dunyoqarashi va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Madaniyat nafaqat xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini va san'atida, balki uning tilida ham o'z ifodasini topadi. Shu boisdan tilshunoslikda madaniyat bilan bog'liq bo'lgan lakuna hodisasi alohida o'rganilmoqda. Lakuna — bu bir xalq tili va madaniyatida mavjud bo'lgan, biroq boshqa xalq tili va madaniyatida bevosita muqobili yo'q bo'lgan tushuncha yoki so'zdir. Koreys madaniyatida mavjud lakunalar o'ziga xos ijtimoiy, axloqiy va estetik qarashlarni ifodalaydi. Ular koreys xalqining qadimiy dunyoqarashi, konfutsiychilik ta'siri, oilaviy qadriyatlar va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada koreys milliy madaniyatiga aloqador lakunalarning tildagi ifodasi, ularning madaniy mazmuni hamda o'zbek tiliga tarjima jarayonidagi muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlari: *함흥차사/장유유서/사물놀이/관혼상제*, ekvivalentlik, nutqiy frazeologiya, four-character idioms, lug'aviy ma'no, madaniy lakuna, lingvomadaniyartshunoslik.

Аннотация: Национальная культура каждой нации тесно связана с её историческим развитием, мировоззрением и социальной жизнью. Культура выражается не только в традициях, ценностях и искусстве народа, но и в его языке. Поэтому феномен лакун, связанных с культурой, изучается в лингвистике отдельно. Лакуна — это понятие или слово, существующее в языке и культуре одного народа, но не имеющее прямого эквивалента в языке и культуре другого. Лакуны, присутствующие в корейской культуре, выражают уникальные социальные, моральные и эстетические взгляды. Они тесно связаны с древним мировоззрением корейского народа, влиянием конфуцианства, семейными ценностями и системой взаимоотношений в обществе. В данной статье рассматривается выражение лакун, связанных с корейской национальной



культуры, в языке, их культурное содержание и проблемы процесса перевода на узбекский язык.

Ключевые слова: эквивалентность, речевая фразеология, четырехсимвольные идиомы, лексическое значение, культурная лакуна, лингвистические и культурологические исследования.

“**Lakuna**” (lotincha lacuna — “bo’shliq”, “tanaffus”) atamasi ilk bor lingvomadaniyatshunoslikda 20-asr o’rtalarida qo’llanilgan. U asosan tarjima jarayonida paydo bo’ladigan “bo’shliq”ni — ya’ni bir tildagi ma’no boshqa tilda bevosita ifodalanmaydigan holatni bildiradi. Masalan, o’zbek tilidagi “kelin salom” tushunchasining ingliz yoki koreys tilida to’liq muqobili yo’q. Shu kabi koreys tilida ham o’zbek madaniyatida mavjud bo’lmagan ko’plab lakunalar uchraydi. Lakunalar milliy tafakkur, tarix, urf-odat, e’tiqod va qadriyatlarning tildagi aksidir. Lakunalarni o’rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarjima nazariyasi, etnolingvistika va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. Chunki ular xalqlar o’rtasidagi madaniy tafovutni tushunishga yordam beradi.

Koreys tilidagi iboralar va hanja asosidagi to’rt xarfli iboralar (four-character idioms) ayniqsa madaniy va tarixiy kontentni o’z ichiga oladi. 함흥차사 (咸興差使) — shunday iboralardan biri bo’lib, so’zma-so’z “Hamheungga yuborilgan chasa (xabar tashuvchi / elchi)” degan ma’noni bildiradi. Ammo lug’aviy ma’nosi bilan birga, bu ibora keng ma’noda “biron-bir ishga jo’natilgan kishi uzoq vaqt

axborotsiz qolishi yoki qaytmasligi”ni ifodalaydi.

Etimologiya va tarixiy kelib chiqishini ko’radigan bo’lsak iboraning kelib chiqishi XV—XVI asrlarga borib taqaladi va u bilan bog’liq folklor hikoya va tarixiy voqealar mavjud. Tarixiy rivoyatlarga ko’ra, Joseon davrida taxtdan voz kechgan (yoki taxtni topshirgan) sobiq qirol (Taejo/Iseonggye) bilan bog’liq voqea sababli, unga yuklatilgan masalani hal etish uchun yuborilgan elchilari (差使, chasa) Hamheungga borganlarida qaytib kelmay qolgan yoki uzoq qaytmagan, degan gap tarqaladi. Shu sababli “Hamheungga yuborilgan elchi” iborasi metaforik ma’noda “xabar kelmay qolish, javob berilmaslik” ma’nosini olgan. Ayrim manbalarda esa voqealar tafsiloti va qaysi elchilarning qaytmagani turlicha talqin etilgan. An’anaviy rivoyat va haqiqat orasidagi farqni ko’radigan bo’lsak, ommaviy rivoyat bitta qat’iy tarixiy dalildan ko’ra xalq og’zaki ijodidan kelib chiqqan. Ba’zi tarixiy manbalar (va so’nggi tadqiqotlar) rivoyatdagi hamma tafsilotlarni tasdiqlamaydi: ya’ni “Hamheungga borgan barcha chasa o’ldirildi” kabi qatl qismi ayrim hikoyalarda bor, biroq rasmiy yozma manbalarda faqat ayrim elchilarning talafi haqida ma’lumot qolgan. Shu bois, iboraning asosiy kelib



chiqishi — Taejo va Taejong davridagi siyosiy voqealar atrofidagi hikoyalar bilan bogʻlanadi, ammo rivoyat va hujjatlarda tafsilotlar farq qilishi mumkin.

Zamonaviy til va madaniy maʼnoda ishlatilishi

Bugungi koreys tilida 함흥차사 ifodasi keng maʼnoda ishlatiladi:

- Biror kishi «biror ishga», «topshiriqqa» chiqadi-yu, uzoq muddatdan beri xabar bermaydi yoki umuman qaytmaydi — bunday holatni tasvirlash uchun ishlatiladi.

- Kundalik suhbatlarda, masalan: “그 사람은 심부름 가서 함흥차사야” — “u kimdandir yuborilgan (topshiriqqa) ketib, biron xabar bermayapti” maʼnosida ishlatiladi.

Bu ibora odatda salbiy yoki tanqidiy kontekstda qoʻllanadi — yaʼni “xizmat yoki burchni bajarmaslik” yoki “javobsiz qolish”ni nazarda tutadi.

Tarjima, ekvivalentlar va lingvistik jihatlari

Oʻzbekchaga bevosita qatʼiy ekvivalenti yoʻq, lekin maʼnoni ifodalovchi yaqin iboralar mavjud: “xabar bermaslik”, “biron ish uchun yuborilgan kishi qaytmay qolish”, “joʻnatilgan elchi xabarsiz qolish” va hokazo. Inglizchada esa koʻpincha “a messenger sent to Hamhung (i.e., a messenger who never returns)” yoki qisqaroq “a missing messenger / someone sent away who never comes back” kabi tavsifiy tarjimalar ishlatiladi. Tarjimada eng toʻgʻri yondashuv — kontekstga qarab tavsifiy tarjima (descriptive translation)

yoki izoh qoʻshish (footnote) boʻladi, chunki ibora tarixiy anʼana va metaforik maʼnoni oʻzida jamlagan.

Iboraning maqola yoki adabiyotda ishlatilishini quyidagi misollar orqali koʻrishimiz mumkun:

1. Gazeta / blog: 그는 해당 프로젝트를 위해 파견되었으나, 현재까지 나에게 어떠한 답변도 없다. “U loyiha uchun yuborildi, ammo menga hech qanday javob yoʻq — butunlay 함흥차사 boʻlib qoldi.”

2. Adabiyot: qahramon kimnidir izlab yuboradi va uni topa olmaydi — muallif metafora sifatida 함흥차사 ishlatishi mumkin.

3. Nutqiy frazeologiya sifatida, ibora gʻoyat koʻp ishlatiladigan frazeologik birlik boʻlib, madaniy kontekstga bogʻliq talqin beradi.

Koreys madaniyatida ijtimoiy tartib, hurmat va oʻzaro munosabatlar tizimi qadimdan muhim oʻrin tutadi. Xususan, konfutsiychilik taʼsirida shakllangan bu qadriyatlar jamiyatdagi har bir insonning oʻrnini, yoshi, mavqei va roliga qarab belgilaydi. Shu qadriyatni ifodalovchi eng muhim iboralardan biri — 장유유서 (張有有序) dir. Ushbu ibora koreys xalqining “katta kichikni bilish, yoshi kattalarga hurmat, kichiklarga gʻamxoʻrlik” tamoyilini ifodalaydi.

1. Lugʻaviy va semantik maʼnosi

장유유서 (長幼有序) iborasi xitoycha ildizga ega boʻlib, toʻgʻridan-



to'g'ri tarjimada "kattayu kichik o'rtasida tartib mavjud" degan ma'noni bildiradi.

Bu ibora quyidagi iyerogliflardan tashkil topgan:

- 長 (jang) – "katta", "yoshi ulug'"
- 幼 (yu) – "kichik", "yosh bola"
- 有 (yu) – "bor bo'lmoq"
- 序 (seo) – "tartib", "izchillik", "tizim"

Demak, 장유유서 — "kattayu kichik o'rtasida tabiiy tartib va izchillik mavjud" degani. Bu tushuncha koreys jamiyatida hurmat, odob, intizom va ijtimoiy muvozanatni anglatadi.

Iboraning hozirgi zamon talqinini ko'radigan bo'lsak Koreyada bu tushuncha avvalgidek qat'iy bo'lmasa-da, madaniy ongda chuqur ildiz otgan. Yoshlar orasida tenglik g'oyasi kuchaygan bo'lsa-da, kattalarga hurmat va odobli muomala hanuz muhim hisoblanadi.

Masalan:

• Katta yoshdagilar bilan "반말(norasmiy til)"da gaplashish hanuz nojoiz sanaladi.

• Kichiklar har doim salom berishda egilib, "안녕하세요" yoki "안녕하십니까" kabi hurmat shaklini ishlatishadi.

Bu holatlar 장유유서 qadriyati zamonaviy jamiyatda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rsatadi.

Misollar orqali tahlil qilib tarjimada qanday ke;

1. "가족 모임에서 할머니가 먼저 식사를 시작하신 후에야 다들 식사를 했다."

– Oila yig'inida buvilar ovqatni boshlaganlaridan keyin boshqalar ham yeyishni boshlashdi.

Bu 장유유서 prinsipiga amal qilinishining aniq misolidir.

2. "회사에서 나이 많은 선배에게 반말을 쓰는 건 장유유서에 어긋난다."

– Ishxonada yoshi kattaroq kishiga norasmiy tilda gaplashish 장유유서tamoyiliga zid hisoblanadi.

3. "요즘 젊은 세대는 평등을 중요시하지만, 여전히 장유유서를 중시하는 문화가 남아 있다."

– Bugungi yosh avlod tenglikni muhim deb biladi, ammo baribir장유유서 qadriyatini saqlab qolgan.

Tarjima va madaniy ekvivalentlarini ko'radigan bo'lsak o'zbek tilida 장유유서 tushunchasini "kattayu kichik o'rtasida tartib bor" yoki "katta hurmat, kichik odob bilan bo'lsin" degan iboralar orqali ifodalash mumkin.

Bu, asosan, o'zbek madaniyatidagi "kattani hurmat qilish", "odoblilik" tamoyillari bilan yaqin. Ammo koreys madaniyatida bu hodisa institutsional darajada (til, maktab, jamiyat) qat'iyroq qo'llaniladi.



사물놀이 (o'zbekcha: samulnori)

— koreys xalq musiqa san'atida muhim o'rin tutuvchi milliy ijro san'at turi bo'lib turi bo'lib, so'zma-so'z (사물) o'yin / ijro" degan ma'noni bildiradi: 사물 — “to'rt buyum / asbob”, 놀이 — “o'yin, ijro, o'ynash”. Bu tamoyil asosida ijro etiladigan musiqa to'rt an'anaviy zarbli cholg'ulardan iborat: **꽹과리** (kkwaenggwari), **징** (jing), **장구** (janggu) va **북** (buk). Samulnori asosan Koreya folklori — **북물** pungmul (kulgisi: milliy marosimlar, mehnat marosimlari, bayramlar) an'alaridan shakllangan va sahnaga moslangan zamonaviy shaklidir.

Samulno'ridagi to'rt asbob va ularning ro'li quyidagicha:

꽹과리 (Kkvaengvari) chaqmoq, chaqin (tez va o'tkir tovush) degan ma'noni anglatadi. Eng baland va o'tkir ovoz chiqaradi. Ijroni boshqaradi, tezlik va o'zgarishlarni belgilaydi. Boshqa asboblarga ishora beruvchi yetakchi vazifasini bajaradi.

장구 (Janggu) yomg'ir (uzluksiz va o'zgaruvchan tovush) degan ma'noni anglatadi.

Ikki tomonli baraban bo'lib, ritmni boyitadi. Tez va sekin zarbalarni uyg'unlashtiradi. Ijroga harakatchanlik va ritmik rang-baranglik beradi.

북 (Buk) Ro'li va ahamiyati: bulut (og'ir va sokin ohang) degan ma'noni anglatadi.

Past va kuchli ovoz chiqaradi. Ritmning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ijroga barqarorlik va kuch bag'ishlaydi.

징 (Jing) shamol (keng va sokin tovush) degan ma'noni anglatadi. Ovozi chuqur va uzoq jaranglaydi. Ijroning boshlanishi, o'zgarishi va yakunini bildiradi. Umumiy kayfiyat va tuzilishni boshqaradi.

Har bir asbob o'ziga xos tembr, dinamik va ritmik vazifaga ega — ularning birgalikdagi kontrasti va murakkab poliritmi samulnori xususiyatini belgilaydi.

관혼상제 (gwanhonsangje) — koreys xalqining eng muhim to'rt hayotiy marosimini ifodalovchi so'z bo'lib, insonning tug'ilishidan o'limigacha bo'lgan hayot davrlaridagi asosiy bosqichlarni ramziy tarzda ifodalaydi. Ushbu to'rt marosim insonning jamiyatdagi o'rni, oilaviy qadriyatlari va madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq.

So'z tarkibi quyidagicha:

- **관** (冠) — bosh kiyim taqish marosimi (balog'atga yetish),
- **혼** (婚) — nikoh marosimi,
- **상** (喪) — motam, ya'ni yaqin kishining vafoti marosimi,



• 제 (祭) — ajdodlarga bag'ishlangan xotira marosimi (qurbonlik / eslash).

冠禮 (관례, Gwanrye) — Balog'atga yetish marosimi bo'lib, bu marosim yosh o'g'il va qizlarning voyaga yetishini, jamiyatda mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonini bildiradi. Erkaklar uchun bu “bosh kiyim taqish” (冠 — toj, bosh kiyim) orqali amalga oshgan. O'g'il bola 15–20 yoshga yetganda o'tkazilgan marosimdir.

U maxsus kiyim kiygan, boshiga yangi bosh kiyim (관) taqilgan — bu uning bolalikdan chiqib, kattalar safiga qo'shilganini anglatgan. Marosim davomida unga yangi ism yoki laqab berilgan. Shu kundan boshlab u jamiyatda muhim masalalarda fikr bildirishi yoki uylanishi mumkin bo'lgan.

Masalan, Joseon davrida zodagon oilalarda o'g'il bolaga 관례 o'tkazilgach, unga yangi ism berilgan va u rasmiy ravishda ota uyidan mustaqil qarorlar qabul qila boshlagan. Bugungi kunda esa bu marosim ramziy shaklda — ba'zi oilalar yoki maktablarda “coming of age day (성년의 날)” sifatida nishonlanadi.

婚禮 (혼례, Honrye) — Nikoh marosimining ma'nosi bu inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy bog'lanish marosimi bo'lib, oilaning davomiyliigi va jamiyatdagi barqarorlikni ramziy qiladi. Nikoh konfutsiylik tartiblariga ko'ra o'tkazilgan: ikki oila o'zaro kelishuv orqali nikohni belgilagan. Marosimda

paebaek (폐백) deb ataluvchi an'ana mavjud: kelin kuyovning ota-onasiga ta'zim qiladi, u esa yangi oilaga duo beradi. Kelin an'anaviy kiyim — 한복 (hanbok) kiyar, sochini maxsus turmakda to'g'rilardi. Kuyov esa ko'k yoki qora 도포 (dopo) kiyimida bo'lgan. Masalan, qadimgi davrlarda “혼례” marosimidan keyin ikki oila birlashgan hisoblangan. Hozirgi Koreyada esa bu marosim an'anaviy unsurlar (hanbok, choy marosimi, paebaek) va zamonaviy nikoh shakllari (mehmonxona, restoranlarda o'tkaziladigan to'ylar) bilan uyg'unlashgan.

Bu to'rt marosim — Koreya konfutsiylik an'anasining markaziy qadriyatlari bo'lib, “inson hayotining to'rt muhim burilishi” deb qaraladi.

喪禮 (상례, Sangrye) — Motam marosimi yaqin inson vafot etganda o'tkaziladi. Asosiy maqsad — marhumga hurmat bildirish va uning ruhi tinch bo'lishini ta'minlash. Vafot etgan inson jasadi odatda uyning markaziy xonasiga joylashtirilgan, yaqinlari oq kiyim kiygan. 3 kunlik motam davrida qarindoshlar yig'ilgan, yig'lagan va marhum uchun ibodat qilgan. So'ngra dafn marosimi o'tkazilgan va qabrga yozuvli tosh (묘비) o'rnatilgan. Shundan so'ng “삼우제 (samuje)” deb ataluvchi uch kunlik xotira marosimi o'tkazilgan. Masalan, Joseon davrida ota-onasi vafot etgan farzand uch yil motam tutgan (uch



yil qora kiyim kiygan, quvonchli tadbirlarda qatnashmagan). Bugungi kunda esa bu marosim qisqaroq shaklda, lekin hurmat unsurlari saqlangan holda o'tkaziladi.

관혼상제 (gwanhonsangje) —

Koreys xalqining hayot falsafasi, oilaviy qadriyatlari va konfutsiylilik an'analarining markaziy ramzidir.

Bu to'rt marosim — inson hayotining tug'ilish, voyaga yetish, turmush qurish va vafot etish bosqichlarini hurmat bilan belgilaydi. Har bir marosim orqali inson o'z ajdodlariga, oilasiga va jamiyatga sadoqatini namoyon etadi.

Bugungi kunda ham koreyslar ushbu marosimlarning asosiy qadriyatlarini saqlab qolgan holda, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirib davom ettirishadi. Shuning uchun 관혼상제 — Koreya milliy madaniyatining eng qadimiy va muqaddas asoslaridan biridir.

XULOSA

Mazkur maqolada koreys milliy madaniyatiga aloqador so'z va iboralarni tarjima qilish jarayonida kuzatiladigan lakunarlik hodisasining mohiyati, kelib chiqish sabablari va tarjima amaliyotidagi muammolari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida koreys madaniyati tildagi o'ziga xos leksik birliklar, frazeologik iboralar va to'rt belgili idiomalar orqali milliy qadriyatlar, tarixiy

tajriba hamda dunyoqarashni aks ettirishi ko'rsatib berildi. Lakunarlik — bu bir xalq tili va madaniyatida mavjud bo'lgan, lekin boshqa tilda bevosita ekvivalenti topilmaydigan tushunchadir. Maqolada iboralarning tarixiy-etimologik ildizlari, zamonaviy kontekstdagi ishlatilishi va ularning o'zbek tiliga tarjimasidagi qiyinchiliklar yoritilgan. O'zbek tiliga tarjima qilishda ko'pincha tavsifiy tarjima (descriptive translation), izoh berish yoki madaniy ekvivalentni izlash usullari qo'llanilishi maqsadga muvofiq ekani aniqlangan. Chunki bunday iboralar orqasida faqat lingvistik ma'no emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va mentaliteti yotadi. Natijada, lakunalarni o'rganish nafaqat tarjima nazariyasi uchun, balki lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular orqali xalqlar tafakkuri, qadriyatlari va madaniy tafovutlarini chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, koreys tilidagi madaniy lakunalarni tadqiq etish va ularni o'zbek tiliga adekvat tarzda tarjima qilish, tarjimonning nafaqat til bilimi, balki madaniyatlararo kompetensiyasini ham talab etadi. Bu esa tarjima jarayonida madaniyatlararo bo'shliq (cultural gap)ni kamaytirib, xalqaro muloqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тер-Минасова С. Г. Реальный мир, культура, язык // Язык и межкультурная коммуникация. — М.: Слово/Slovo, 2000. — Гл. 1. — С. 35–87. — 261 с.
2. 김영철. (2018). 언어와 문화의 관계에서 본 라쿠나 현상 연구. 언어학연구, 45, 123–145.
3. Дадамирзаева И., Кудрина Ю. Амалий таржима. — Тошкент: Ворис нашриёти, 2011. — 176 б.
4. 최은정. (2019). 한·우즈베크어 언어 비교를 통한 라쿠나 분석. 외국어교육연구, 33, 201–220.
5. Davronova, Z. Badiiy matnda realitlardan foydalanish usullari. // O'zMU xabarlari. DOI: 10.69617/uzmu.v1i1.4.2087.
6. Hasanov, A. Adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish. // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2023.
7. Yoldoshev, U. H. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik, lingvokulturalogik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o'zbek xalq latifalari misolida): Filol. fan. f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2017.
8. Maqola talablari. // JOURNAL.FLEDU.UZ. URL: <https://journal.fledu.uz/uz/maqola-talablari/> (murojaat sanasi: 11.04.2025).
9. Essential korean words 2000 advanced Min Jin-young, Park Jin-chul, Jang Ji-yeong. 2024.